



AMARANT O`SIMLIGI TARKIBIDAGI FLAVANOIDLAR

N.T.Yo`lchieva- k.f.f.d (PhD)

Andijon davlat universiteti

Maqola haqida ma'lumot

Qabul qilingan: 18.06.2024

Qayta qabul : 24.06.2024

Saytda mavjud : 28.06.2024

Muallif (lar)

N.T.Yo`lchieva

Muallif bilan aloqa

<https://orcid.org/0009-0000-2873-4573>

nafizayuldasheva@gmail.com

© N.T.Yo`lchieva

UNIVERSAL xalqaro ilmiy jurnal

Ochiq ma'lumotlar:

<https://universaljurnal.uz/index.php/jurnal>

Maxfiylik bayonoti

Materialni istalgan vosita yoki formatda nusxalash va qayta tarqatish hamda maqoladan to'g'ri iqtibos keltirish va litsenziyasini ko'rsatish sharti bilan istalgan maqsadda foydalanish mumkin.

Annotatsiya. Ushbu maqolada amarant o'simligi tarkibidagi flavanoid miqdorini aniqlash usuli va olingan natijalar keltirilgan. Amarant oilasi (Amaranthaceae Juss.) ga 65 ta turkum o'simlik mansub bo'lib, ularni 900 dan ortiq turlari bor. Shular ichidan Amaranthus L turkumi keng taqalgan. Amaranthus L turkumining hozirgi kunda turli manbalarda 60 dan 100 taga turi mavjudligi keltiriladi.

Kalit so'zlar: flavanoid, ferul kislotasi, gall kislotasi, xloragen kislotasi, Andijon navi, YuSSX.

Аннотация: Абстрактный. В данной статье представлен метод определения количества флавоноидов в растении амарант и полученные результаты. Семейство Амарантовые (Amaranthaceae Juss.) включает 65 родов растений и более 900 видов. Из них широко распространено семейство Амарантовые L. По разным данным в настоящее время насчитывается от 60 до 100 видов Amaranthus L.

Ключевые слова: флаваноид, феруловая кислота, галловая кислота, хлорогеновая кислота, андижанский сорт, ЮССХ.

Annotation: This article presents the method of determining the amount of flavanoids in amaranth plant and the obtained results. Amaranth family (Amaranthaceae Juss.) includes 65 genera of plants and more than 900 species. Of these, the Amaranthus L family is widespread. According to various sources, there are currently 60 to 100 species of Amaranthus L.

Key words: flavanoid, ferulic acid, gallic acid, chlorogenic acid, Andijan variety, YuSSX.

Respublikamizda amarantning mahalliy iqlim sharoitlariga mos hosildor navlarini yaratish, introduksiya qilish, yetishtirilgan xom ashyoni qayta ishlash borasida bir qator diqqatga sazovor ilmiy ishlarni amalga oshirilmogda. Bu borada mintaqamiz iqlim sharoitiga mos introduksiya qilingan amarant o'simligi navlari bargi va gulto'pi qismlarini qayta ishlash orqali olingan shifobaxsh fitochoy va bo'yoq mahsulotlarini kimyoviy tarkibini tadqiq qilish, ajratib olingan komponentlarni biologik faolliklarini o'rganish, ularni tegishli sohalarga tadbiiq etish muhim ahamiyat kasb etadi.

Amarant insonlar tomonidan qariyib 4000 yildan beri foydalanib kelinayotgan o'simliklardan biri bo'lib, tropik va subtropik iqlim sharoitlariga mos turlari ko'plab uchraydi. Amarant o'rta asrlarda inklar va atsteklar davrida iqtisodiy jihatdan muhim ahamiyat kasb etgan. Ularda imperatorlarga soliqlarni amarant urug'i bilan to'laganligi to'g'risida ma'lumotlar keltirilgan. Qadim ajdodlari esa amarantdan diniy marosimlarida ham foydalanishgan. Amarant so'zi qadimgi slavyanlarining "mara (amrita)-o'lim", "a-inkor" so'zlaridan olingan bo'lib, "o'limni inkor etish", yoki "abadiylik" ma'nosini bildiradi. Grekchada esa "αμάρανθος" "a-inkor" prefiksi va "μαραίνω-so'limoq" "avθoς-gul" so'zlari qo'shilishidan hosil qilinib, so'zma-so'z "so'limaydigan gul" degan ma'noga ega (quritilgan amarant 3-4 oy o'z shakli-shamoyilini saqlaydi). Qadimgi slavyan tabobatida amarant qarishga qarshi vosita sifatida ishlatilgan. Markaziy Amerika xalqlari-inklar va atsteklar, qadimiy etnik ruslar va ellinlar ham uni mangu hayot belgisi deb hisoblashgan [1].

Amarant keyinchalik Shimoliy Amerikaga, Hindistonga va Osiyo mamlakatlari bo'ylab dunyoga tarqala boshlab, Xitoygacha yetib kelgan. Hozirgi paytda Hindiston, Pokiston, Nepal va Xitoyning tog'li aholisi orasida donli va sabzavot sifatida keng ommalashgan. Amarant oilasi (Amaranthaceae Juss.) ga 65 ta turkum o'simlik mansub bo'lib, ularni 900 dan ortiq turlari bor. Shular ichidan *Amaranthus* L turkumi keng taqalgan. *Amaranthus* L turkumining hozirgi kunda turli manbalarda 60 dan 100 taga turi mavjudligi keltiriladi [2]. Ushbu o'simlik turlari don, sabzavot, dorivor, dekorativ, texnik va yem-xashak ekini sifatida Janubiy Amerika mamlakatlari, Indoneziya, Xitoy, Xindiston kabi Janubi-Sharqiy Osiyo mamlakatlarida keng miqyosda yetishtiriladi.


Amarantning *A. cruentus* L., *A. caudatus* L., *A. viridis* L., *A. tricolor* L., *A. caudatus* L., *A. cruentus* L., *A. hypochondriacus* L., *A. blitum* L., *A. caudatus* L., *A. mantegazzianus* Passer., *A. dubius* Mart., *A. paniculatus* L., *A. spinosus* L., *A. tricolor* kabi madaniylashtirilgan turlari ma'lum [3]. Biz tomonimizdan O'zbekiston iqlim sharoitiga moslashtirilgan "Andijon" navining kimyoviy tarkibi va biologik faolliklari o'rganildi [4].

Amarant barglarida kversetin, izokversetin, izoramnetin, siren kislotasi, sinapin kislotasi, protokatexin kislotasi, trifolin, rutin, daydzein, kempferol, karotinoidlar kabi ikkilamchi mahsulotlarning bo'lishi uning shifobaxshlik xususiyatlarini belgilaydi.

Amarant urug'i tarkibida fenol kislotalar o'simlik naviga ko'ra umumiy miqdori 100 g mahsulotda 16,8 mg dan 59,7 mg gacha tashkil etadi. Shulardan eruvchan fenol kislotalar 7 % - 61 % ni tashkil etadi. Tabiiy bioflavonoid-rutin amarant urug'i, barglari tarkibida o'simlikning turi va yetishtirilayotgan mintaqasiga ko'ra 0,08 -24,5 mg/kg ni tashkil etadi

Flavonoidlar o'simliklar tarkibiga kiruvchi ikkilamchi metabolit birikmlardir. Ushbu birikmalar ikkita benzol yadrosini tutib

turuvchi uch uglerodli fragmentdan iborat C6-C3-C6 uglerod skletiga ega birikmalar hisoblanadi. Amarant to'pgullari tarkibidagi flavanoidlar miqdori, YuSSX xromatografiyasi analizida mahsulot ekstraktlari tarkibidagi fenol birikmalar miqdorini aniqlash 268 nm to'lqin uzunligida olib borildi. Tahlil xromatogrammasi quyida keltirildi [5].



YuSSX xromatogrammasi. 1- ferul kislota, 2- xlorogen kislota 3-gall kislota.


Namuna tarkibida xlorogen kislotasi miqdori 2,15 mkg/ml ni tashkil etadi. Gall hamda ferul kislotalari miqdori mos ravishda 1,04 va 0,012 mkg/ml miqdorni tashkil etadi. Mazkur flavonoidlar

orasida eng kam miqdor ferul kislotasiga to'g'ri kelib, 0,012 mg/g ni tashkil etdi.


Quyidagi jadvalda fenol birikmalarining miqdorlari keltirilgan:

Amarant to'pgullari tarkibidagi fenol birikmalar miqdori


№	Vitaminlar	Chiqish vaqti, daq	Konsentratsiyasi mkg/100 g
1	Ferul kislota	6,13	0,012
2	Xlorogen kislota	10,07	2,15
3	Gall kislota	10,62	1,04



Галл кислота



Ферул кислота



Хлороген кислота

Ma'lumki, organizmda hujayralarda antioksidantlik himoyaning pasayishi natijasida ortiqcha erkin radikallarning hosil bo'lishi keskin ortadi. Erkin radikallarning miqdori ortib ketishi esa ko'plab kasalliklarni kelib chiqishiga sabab bo'ladi. Hujayrada kislorodning faol shakli (KFSH)ning miqdori ayrim ferment va noferment tizimlar orqali boshqariladi. Kasalligini keltirib chiqaruvchi

omillardan biri organizmdagi oksidlanish jarayonining buzilishidir. Xulosa o'rnida aytish mumkinki biologik faollik jihatdan yuqori bo'lgan bu o'simlikdan tayyorlangan oziq-ovqat qo'shilmasi immun tizimini mustaxkamlashda muhim o'rin tutadi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. Arêas, J. A. G., Carlos-Menezes, A. C. C. C., & Soares, R. A. M. (2016). Amaranth. *Encyclopedia of Food and Health*. P135-138
2. Mlakar SG., et al. "Nutrition value and use of grain amaranth: potential future application in bread making". *Agricultura* 6 (2009): 43-53
3. Achigan-Dako, E.G., Sogbohossou, O.E.D., Maundu, P., 2014. Current knowledge on *Amaranthus* spp.: research avenues for improved nutritional value and yield in leafy amaranths in sub-Saharan Africa. *Euphytica* 197, 303–317
4. И.Р.Асқаров, Н.Т.Юлчиева. Амарант-природный ресурс, богатый биологически активными соединениями. *Научный журнал "Universum" химия и биология*. Москва 2021 год Выпуск-11, с.87
5. Н.Х.Тўхтабоев, Н.Т.Йўлчиева, Ш.У.Юлдашев. Айрим маҳаллий амарант навлари таркибидаги биологик фаол бирикмалар ва уларнинг ахамияти. *Товарлар кимёси ва халқ таботати*. №2 2022.-Б.281-292